



ANALYSIS OF PERSIAN-TAJIK VARIATIONS IN UZBEK LANGUAGE

Nadir Nuriddinov

PhD, Associate Professor

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

Sevarbek Elboev

Student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: acquisitions, prefix, suffix, leading morpheme, auxiliary morpheme, present tense verb stem, acquisition factors.

Received: 28.05.23

Accepted: 30.05.23

Published: 01.06.23

Abstract: Many words from other languages have entered the vocabulary of the modern Uzbek language due to historical reasons. Words that came into the Uzbek language from other languages are called borrowed. The acquired words belong to Uighur, Persian-Tajik, Arabic, Russian, German, French, English and other languages. This article is aimed at identifying Persian-Tajik borrowings in the Uzbek language and their analysis.

O'ZBEK TILIDAGI FORS-TOJIKCHA O'ZLASHMALAR TAHLILI

Nodir Nuriddinov

PhD, dotsent

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Sevarbek Elboev

Talaba

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: o'zlashmalar, prefiks, suffiks, yetakchi morfema, ko'makchi morfema, fe'lning hozirgi zamon negizi (FHZN), o'zlashish omillari.

Annotatsiya: Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibiga tarixiy sabablarga ko'ra boshqa tillardan ko'plab so'zlar kirib kelgan. O'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar o'zlashgan so'zlar deb yuritiladi. O'zlashgan so'zlar uyg'ur, fors-tojik, arab, rus,

nemis, fransuz, ingliz va boshqa tillarga oid. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi fors-tojik o‘zlashmalarini aniqlash va ularni tahlil qilish maqsad qilingan.

АНАЛИЗ ПЕРСИДСКИХ-ТАДЖИКСКИХ ВАРИАЦИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Надир Нуриддинов

PhD, доцент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

Севарбек Эльбоев

Студент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: приобретения, приставка, суффикс, ведущая морфема, вспомогательная морфема, основа глагола настоящего времени (ФХЗН), факторы приобретения.

Аннотация: Многие слова из других языков вошли в словарный запас современного узбекского языка в силу исторических причин. Слова, пришедшие в узбекский язык из других языков, называются заимствованными. Приобретенные слова относятся к уйгурскому, персидско-таджикскому, арабскому, русскому, немецкому, французскому, английскому и другим языкам. Данная статья направлена на выявление персидско-таджикских заимствований в узбекском языке и их анализ.

KIRISH

Tilning ijtimoiylashishi oshgani sari uning lug‘at tarkibi ham rivojlanib boraveradi. Til lug‘at tarkibining taraqqiyotida eng muhim omil bu o‘zga tillardan so‘zning o‘zlashtirilishidir. Jumladan, bu holatni o‘zbek tilida ham kuzatishimiz mumkin. Hozirgi o‘zbek tiliga bir nazar tashlaydigan, bo‘lsak, unda arab, fors-tojik, rus va qisman ingliz tiliga tegishli bo‘lgan bir qancha so‘zlarni uchratishimiz mumkin. Ayniqsa forscha o‘zlashmalar soni yuqorida sanab o‘tilgan tillardan o‘zlashgan so‘zlarga nisbatan ko‘proqdir. Oddiy bir misol sifatida aytadigan bo‘lsak, o‘zbek tilidagi “paxta” so‘zining ham kelib chiqishi bevosita fors tili bilan bog‘liq. O‘zbek tiliga fors tilidan leksema ikki yo‘l orqali o‘zlashtirilgan:

ASOSIY QISM

1) jonli so‘zlashuv orqali, bu usulni odatiy usullardan biri deb bemalol ayta olamiz. Chunki, har xil til vakillarining o‘zaro aloqaga kirishi natijasida tabiiyki, so‘z o‘zlashtitish hodisasi kuzatiladi. Boshqa tildagi bir so‘z boshqa tildagi o‘ziga xos xususiyatlarga moslashgan holda

o'zlashadi. Yana bir e'tiborli tarafi shundaki, o'zlashayotgan so'zning talaffuz jihatni ham o'ziga yarasha alohida ahamiyatga ega. Masalan, fors-tojik tilida ishlataladigan "kabutar" so'zi o'zbek tiliga moslashgan holda "kaptar" shaklida o'zlashgan;

2) bosma manbalar orqali, ushbu yo'lni ham o'z navbatida, ikkiga ajratishning imkonini mavjud: Birinchi yo'l shundan iboratki, bir tilda yozilgan adabiyotni ikkinchi bir tilga ya'ni, so'z o'zlashtirib olayotgan tilga tarjima qilish. Bunda ma'nosi faqat o'sha tildagina bo'lgan so'zlarning o'zlashtirilishi mumkin. Ikkinchi yo'l esa, masalan, o'zbek adabiyotiga o'zining asari bilan kirib kelayotgan adibning boshqa millat tili va adabiyotini yaxshi o'rgangani sabab bo'lishi mumkin.

Shuningdek, o'zbek tiliga fors-tojik tilidan so'zlarning kirib kelishiga yana bir qancha omillar ham mayjud bo'lib, ular quyida sanab o'tiladi:

A) aholining asosiy qatlami necha asrlardan beri yonma-yon hududda muayyan urf-odatlar atrofida birlashgan holatda yashab kelayotganligi;

B) bilingvizm hodisasi, ya'ni ikki tilning dialektini bilish (bu hodisa, asosan, ma'lum bir davrda sodir bo'ladi. Hozirgi kunda bu holatni qiyoslaydigan bo'lsak, O'zbekiston aholisining ma'lum bir qismi o'zbek va rus tillarida yetarlicha so'zlashish qobiliyatiga ega);

C) ikki tilda ya'ni o'zbek va fors-tojik tillarida uzoq vaqt davomida ijod qilish. Ma'lumki, bu hodisani, adabiyotshunoslar, "zullisonaynlik" hodisasi deb nomlashadi;

D) O'zbekiston tarixida muhim ahamiyat kasb etgan Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida fors-tojik tilining alohida mavqega ega bo'lganligi;

E) adabiyot, san'at va madaniyatning mushtarakligi hamda xalq turmush tamoyillarining birlashib ketganligi.

Yana bir narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, fors-tojik tilidan leksemalarni o'zbek tiliga o'zlashtirish tarixiy jihatdan faol hisoblangan, hattoki o'zbek tiliga arabcha o'zlashmalarning ma'lum bir qismi aynan fors-tojik tili orqali o'zlashgan. Lekin hozirgi kun uchun bu holat anchagini o'z faolligini yo'qotgan.

Mazkur maqolada Alibek Rustamovning "So'z xususida so'z" asari, U. Tursunov, A. Muxtorov, Sh. Rahmatullayevning "Hozirgi adabiy o'zbek tili", hamda A. Abduazizovning "Tilshunoslikka kirish" asarlaridan nazariy manba sifatida foydalanildi. O'zbek tilidagi fors-tojikcha o'zlashmalar esa Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulom asarlaridan to'planib, tahlil etildi.

O'zlashgan leksemalarga misollar keltiradigan bo'lsak, otlardan – sartarosh (*sar* – "bosh", *tarosh* – "qirmoq, tekislamoq"), avra, avra-astar, bazm, barg, baxt, daraxt, hunar, sifatlardan – badbo'y (*bad* – "yomon", *bo'y* – "hid"), badjahl (*bad* – "yomon", *jahl* – "nodonlik"), baland, baravar, barvasta, bardam, barzangi, barra, baxtiyor, bachkana, ozoda, toza, ravishlardan – bajonodil, banogoh, do'stona, tez, bazo'r, astoydil, chunon, bog'lovchilardan – chunki, agar, yoki

garchi, ham, undov so‘zlardan – balli, dod, modal so‘zlardan – chunonchi, binobarin kabi so‘zlar o‘zlashgan.

Shuningdek, fors-tojik tilidan o‘zlashgan bir qancha prefikslar va suffikslar ham mavjud:

Prefikslar: be- (*bebaxt, befarosat*), ba- (*bama’ni*), no- (*noma’lum, nomahram*),

ham- (*hamfikr, hamdo’stlik*), bar- (*barkamol*), kam- (*kamsuqum*), xush- (*xushmuomala, xushmanzara*).

Suffikslar: -kor, (*paxtakor, pillakor*) -xo‘r (*o’txo‘r, go’shtxo‘r*), -parvar (*oilaparvar, vatanparvar*).

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida “nomahram” so‘zining ishtirokini ko‘rishimiz mumkin: “Ovozim bor, deb ashulaga zo‘r bermasin, - dedi. **Nomahramlarga** ovozini eshitdirsa, rozi emasman...” (Cho‘lpon “Kecha va kunduz” 19-bet. www.ziyouz.com kutubxonasidan)

Aybnama – ushbu qo‘shma so‘z tarkibidagi ikkinchi yetakchi morfema fors-tojik tilidan o‘zlashgan. Fors-tojik tilidagi **نامه** (nome) so‘zi o‘zbek tilida “xat” ma’nosini anglatadi. Demak, bu so‘zning lug‘aviy ma’nosи “ayb xati”dir. Yana bir “aybdor” so‘zidagi “-dor” affiksi ham fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “-dor” fors-tojik tilidagi **داشتن** “doshtan” – “ega bo‘lmoq”, “bor bo‘lmoq” fe’lining hozirgi zamon fe’l negizi shakli hisoblanadi. Bunda yuqoridagi so‘zning ma’nosи “aybga ega, aybi bor” ma’nolari bilan izohlanadi. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida “aybdor” so‘zi uchraydi:

“ - **Aybdor** Zebinisa Razzoq so‘fi qizi harbiy sudning hukmi bilan yetti yil sibir qilindingiz. Norozi bo‘lib ariza berishingiz mumkin. (Cho‘lpon “Kecha va kunduz” 270-bet. www.ziyouz.com kutubxonasidan)

Shuningdek, G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasida “aravakash” so‘zi uchraydi:

“... Bolani aytинг-a, bolani, nabiraginangizni aytинг-a, xo‘jayin. Badal **aravakashingiz** bor-ku, quyib qo‘yganday o‘shaning o‘zginasi...” (“Shum bola” qissasi, 151-bet G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’ at nashriyoti 1983-y.)

Aravakash va aravasoz so‘zlarida ham holat shunday. Bu so‘zlardagi “-soz” va “-kash” so‘z yasovchi qo‘shimchalar fors-tojik tilidagi **کشیدن** “(kashidan) – tortmoq, tashimoq va **ساختن** – yasamoq, qurmoq fe’llarining hozirgi zamon fe’l negizi shakli orqali o‘zlashgandir.

Shuningdek, o‘zbek tilidagi bir qancha *-boz*, *-shunos*, *-xo‘r*, *-kor*, *-namo*, *-omuz*, *-omiz* kabi affikslarda ham ushbu holatni kuzatish mumkin. Masalan, o‘txo‘r so‘zi “o‘t yeyuvchi” ma’nosini anglatadi. Bu so‘zdagi *-xo‘r* affiksi ham **خوردن** (xo`rdan) fe’lining hozirgi zamon fe’l negizi shaklidir. Paxtakor so‘zining lug‘aviy ma’nosи ham “paxta ekuvchi” degan ma’noni bildirib, bu so‘z tarkibidagi *-kor* affiksi **کاشتن** “(kashitan) – fe’lining hozirgi zamon fe’l negizidir. O‘zbek tilidagi

молфуруш, оғ‘уфуруш каби со‘злар таркебидаги аффиксаль морфема ҳам fors тилидаги sotmoq fe’lining hozirgi zamon fe’l negizi shaklidir. Bundan kelib chiqadiki, fors-tojik тилидаги ko‘pgina fe’llarning hozirgi zamon fe’l negizi shakllari o‘zbek тилидаги со‘з yasovchi (ко‘проқ от yasovchi) qo‘shimcha sifatida o‘zlashgan.

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” асаридаги halvofurush со‘зи “holva sotuvchi” ма’носидаги keltirib o‘tilgan: “Chuchuk со‘з sof ko‘ngullarg‘a qo‘shdur, barcha atfol tab’ig‘a muloyim **halvofurush**dur”. (“Mahbub ul-qulub” 49-tanbeh 52-bet www.ziyouz.com kutubxonasiдан).

Jumladan, yuqoridagi o‘zlashgan affikslardan –boz affiksiga misol bo‘luvchi “Homid xotinboz” обраzi ҳам O‘tkan kunlar асарининг qahramonlaridan biridir: “Bu yigit yaxshigina davlatmand bo‘lsa ҳам, lekin shuhrati nimauchundir boyligi bilan bo‘lmay, “Homid **xotinboz**” deb shuhratlangan, kishilar Homid orqasidan so‘zlashganda uning otiga to‘qilgan laqabni qo‘shib aytmasalar, yolg‘iz “Homidboy” deyish ila uni tanita olmasdirlar”. (“O‘tkan kunlar” romani 2-bet www.ziyouz.com kutubxonasiдан).

Quyidagi jadvalda fors-tojik тилидан o‘zbek tiliga o‘zlashgan bir qancha со‘злар keltirilgan. Unda o‘zlashmalarning ma’nolari hamda o‘zlashish yo‘llarini ko‘rishingiz mumkin.

O‘zbek тилидаги ayrim fors-tojikcha o‘zlashmalar jadvali

Nº	O‘zlashgan yetakchi va ko‘makchi morfemalar	Fors тилидаги shakl	O‘zbek тилидаги ma’nosи	Boshqa misollar
1.	Aybnoma (ayb xati)	نامه (nome)	xat	Murojaatnama
2.	Mulkdor (mulkka ega)	داشتн-دار (doshtan-dor FHZN shakl)	Bor bo‘lmoq, egalik qilmoq	Aybdor Puldor
3.	Aravakash	کش-کشیدن (kashidan-kash FHZN shakl)	Tortmoq, tashimoq	mehnatkash
4.	Soatsoz	ساختن-ساز (soxtan-soz FHZN shakl)	Yasamoq, qurmoq	Aravasoz, suvsoz, mashinasoz
5.	O‘txo‘r	خوردن-خور (xo‘rdan-xo‘r FHZN shakli)	Yemoq, ichmoq	Go‘shtxo‘r, sutxo‘r, poraxo‘r, g‘amxo‘r
6.	Molfurush	فروش-فروختن (fo‘ruxtan-fo‘rush FHZN shakli)	Sotmoq	Odamfurush, og‘ufurush

Manbalardan fors-tojik тилидан o‘zbek tiliga o‘zlashgan 63 ta o‘zlashma aniqlandi. Mazkur o‘zlashmalardan:

23 tasi **tub leksema**: paxta, kaptar, avra, bazm, barg, baxt, daraxt, hunar, baland, baravar, barvasta, bardam, barzangi, barra, bachkana, ozoda, toza, agar, yo, garchi, ham, balli, dod;

15 tasi **sodda yasama leksema**: do'stona, bazo'r, chunon, bebaxt, befarosat, noma'lum, nomahram, hamdo'stlik, hamfikr, barkamol, kamsuqum, xushmuomala, xushmanzara oilaparvar, vatanparvar;

6 ta “**so'z+so'z**” shaklidagi qo'shma yasama leksema: avra-astar, badbo'y, badjahl, aybnoma, murojaatnoma, baxtiyor;

19 ta “**ism+FHZN shaklidagi so'zlar**”: odamfurush, molfurush og'ufurush, go'shtxo'r, sutxo'r, poraxo'r, g'amxo'r, aravasoz, suvsoz, mashinasoz, aybdor, puldor, mehnatkash, aravakash, halvofurush, xotinboz, sartarosh, pillakor, paxtakor.

XULOSA

O'rganish jarayonida ma'lum bo'ldiki, o'zbek tiliga fors-tojik tilidan o'zlashgan tub leksemalar hamda “ism+FHZN” shaklidagi o'zlashmalar boshqa shakllarga nisbatan sermahsulroq. O'z navbatida, “so'z+so'z” shaklidagi o'zlashmalar esa nisbatan kamroq ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'zbekiston, 1992. – B. 176-177.
2. Abduazizov A. Tilshunoslikka kirish. – T.: Sharq, 2010. – B. 79-80.